

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi, filologiya fanlari nomzodi, professor Adizova Nodira Baxtiyorovna taqrizi ostida

## ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK TUSHUNCHALARINI O’RGATISHNING AHAMIYATI

*Abdullayeva Feruza Nurilloyevna*

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

*Shodiyeva Mehribon Amin qizi*

*BuxDPI mustaqil izlanuvchisi. +998997079895*

**Annotation:** Ushbu maqolada 2-sinf ona tili darsligida berilgan “Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar imlosi” mavzusidagi mashqlar tahlili va turli qo‘shimcha topshiriqlar tuzish bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon qilingan. Mavzudagi lingvistik tushunchalar mazmunan ifodalab berilgan. Boshlang‘ich sinflarda ingvistik tushunchalarni o’rgatishda qo‘llash mumkin bo‘lgan ayrim usullar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлены анализ упражнений по теме «Правописание названий животных», приведенных в учебнике родного языка для 2 класса, и отзывы о создании различных дополнительных заданий. Языковые понятия в теме выражаются в содержании.

**Abstract:** In this article, the analysis of the exercises on the topic "Spelling of the names given to animals" given in the 2nd grade native language textbook and feedback on the creation of various additional tasks are presented. Linguistic concepts in the topic are expressed in content.

**Kalit so‘zlar:** lingvistik tushuncha, interfaol metod, pedagogik texnologiya, "Zanjir" metodi, "Alifbo tartibi" metodi, "T-chizmasi" metodi, "Venn diagrammasi" metodi, kreativ fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv.

**Ключевые слова:** лингвистическая концепция, интерактивный метод, педагогическая технология, метод «Цепочка», метод «Алфавитный порядок», метод «Т-рисунок», метод «диаграмма Венна», творческое мышление, компетентностный подход.

**Key words:** linguistic concept, interactive method, pedagogical technology, "Chain" method, "Alphabetical order" method, "T-drawing" method, "Venn diagram" method, creative thinking, competence approach.

**Kirish.** Bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri – bu yoshlarning ta’lim va tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratishdir, jumladan, yurtimizda ham ta’lim sohasida juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’limning sifat va samaradorligini yana-da oshirish maqsadida ilg‘or xorijiy davlat tajribalari, xalqaro baholash dasturlaridan foydalanilmoqda. Shunday xalqaro baholash dasturlaridan biri – bu PIRLSdir. PIRLS((inglizcha: Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda ta’lim olayotgan o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish, tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimi. Ushbu tadqiqot davriy tarzda – har besh yilda bir marta o‘tkaziladi va hozirgacha besh marta: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o‘tkazilgan. Matnlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar har bir so‘z, unda ifodalangan mazmunni sinchkovlik bilan kuzatadi. Bu jarayonda so‘zlar ma’nosi, tarkibi, o‘zaro bog‘lanishi va gaplarning mantiqan ketma-ketligi asosida matndagi xulosa chiqariladi. O‘qilgan matn yuzasidan turli topshiriqlar bajariladi. Bunday topshiriqlar mohiyatida asosiy xulosani to‘g‘ri chiqara olish, aniq ma’lumotlarni eslab qolish asosida analiz-sintez qila olish kabilalar jamlanadi. Lingvistik bilimlarni to‘g‘ri qo‘llagan holda matndagi til xususiyatlarini ilg‘ab olishlari mumkin. Matn

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ustida ishslash jarayonida lingvistik bilimlarning puxtaligi tahlil jarayonini yengillashtiradi va barcha o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi. PIRLS Xalqaro baholash dasturi topshiriqlarini bajarishda ham matndagi so‘z birikmalari va gaplar orasidagi bog‘liqlikka tayaniladi. **Materiallar va uslublar.** Xorijiy tillarni o‘rganishda ham aynan lingvistik bilimlar yordam beradi. Chunki, o‘z ona tilidagi bilimlarni puxta egallagan o‘quvchilargina boshqa tilni o‘rganishda qiyinchilikka uchramaydi. So‘z, so‘z birikmasi va gap o‘rtasidagi farqli jihatlarni anglab olish, ularni fonetik, leksik, orfografik hamda sintaktik tahlil qilish orqali tilshunoslik bo‘limlarining bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Darslikdagi matnlarni tahlil qilish jarayonida ham tilshunoslik bo‘limlarining o‘zaro mutanosibligini izohlab o‘tish lozim. Tilimizning boy imkoniyatlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga munosib tarzda, ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda oson usullar orqali yetkazib berish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirish, namoyon qilish, kreativ fikr yuritishiga erishish, olgan bilimlarini hayotga tatbiq qila olish ko‘nikmasini shakllantirishda kommunikativ kompetensiyaning o‘rnini beqiyos. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish esa til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash bilan bevosita bog‘liqidir.

**Natijalar va muhokamalar.** Yangilangan boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida ko‘proq turli qiziqarli mavzularga oid matnli topshiriqlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘quvchilarning og‘zaki bog‘lanishli nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda lingvistik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Mavzular kesimida matnlarga mos va qiziqarli metod hamda topshiriqlarni tanlay bilish pedagogning mahoratiga bog‘liq. Dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta‘minlagan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik bilimlarni astasekin o‘zlashtirib borishlarini ta‘minlash lozim. Bunda o‘quvchilar so‘zning qudrati, undan o‘z o‘rnida foydalanish, har bir so‘zning anglatgan ma’nosini to‘g‘ri tushunish va so‘z birikmasini tuza olish hamda ma’noviy, grammatik tugal gaplar hosil qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lib boradilar. Bunda aniq maqsadga asoslangan holda tuzilgan topshiriqlar, texnologiyalar yordam beradi. Bilimlarni berishda ma’lum ketma-ketlik asosida asta-sekinlikda, qisqa va tushunarli ma’lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ko‘proq o‘quvchilarga mustaqil ravishda ijodiy topshiriqlar berish ham ijobiy natija beradi.

Ushbu bilimlarni hosil qilishda to‘g‘ri tanlangan lingvistik topshiriqlarning ahamiyati katta. Masalan, 2-sinf III qism ona tili darsligida berilgan “Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar imlosi” mavzusini ko‘rib o‘tsak, mavzu orqali orfografik va lingvistik bilimlarni birgalikda berishimiz mumkin. Mavzu avvalida hayvonlar, ularning turlari va hayotimizdagи ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tamiz. O‘quvchilar 3 qatorga bo‘linadi va quyidagicha nomlanadi: “Uy hayvonlari”, “Yovvoyi hayvonlar” va “Parrandalar”. “Zanjir” metodi asosida har bir guruh o‘ziga tegishli tushunchalarni ketma-ketlikda aytadi va har biriga so‘z birikmasi tuziladi. Shu o‘rinda hayvonlarga oid qiziqarli ma’lumotlar, topishmoq yoki she’rlardan so‘rash ham mumkin. 1-mashqda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning nomlarini alohida qatorga yozish sharti berilgan. Bu mashqni o‘quvchilar “T-chizmasi” metodi asosida bajarishlari mumkin.

2-mashqda “Qishlog‘imiz veterinari” mavzusida matn berilgan bo‘lib, bunda hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar qatnashgan gaplarni ko‘chirib yozish sharti berilgan. Shartga qo‘srimcha ravishda “Alifbo tartibi” metodini qo‘llash mumkin, ya’ni alifbo tartibi berilgan qog‘ozlar tarqatiladi. Qatorlar har bir harf bilan boshlanuvchi hayvon nomlarini yozishlari kerak:

A – Arslon

B – Boychibor

D – ...

3-mashqda rasmdagi ayiq, it va maymunga holatidan kelib chiqib nom berish va gaplar tuzish sharti berilgan. Mashqqa qo'shimcha ravishda "Venn diagrammasi" metodini qo'llash mumkin. O'rtada hayvon nomi beriladi. Bir tomonida yaxshi xususiyati, ikkinchi tomonda yomon xususiyati yozish topshirig'i beriladi. Yozilganlar asosida so'z birikmalari va gaplar tuziladi. Darslikdagi mashqlarga qo'shimcha ravishda qo'llanilgan interfaol metod yoki zamonaliv pedagogik texnologiyalar yordamida o'quvchilar diqqatini bir joyga jamlashga, turli kompetensiyaviy xususiyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Dars jarayonida bunday materiallardan foydalanishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

**Xulosa.** Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktyabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzu va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-sonli Farmonlari ona tilimizni asrabavaylash, uni yosh avlodga yetkazib berish kabi vazifalarni to'la-to'kis bajarishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. O'quvchilar qalbida ona tiliga nisbatan muhabbat uyg'otishda tilga oid tushunchalarni tushunarli tarzda yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Bunday vazifani amalga oshirishda o'quvchilarga so'z, uning ma'nosи, tarkibi hamda undan to'g'ri foydalana olishga doir dastlabki bilimlar berilishi zarur.

Yuqoridagi mavzuga oid mashqlarda berilgan topshiriqlar mazmunida orfografik, fonetik, lingvistik bilimlar o'zaro uyg'unlashganini ko'rishimiz mumkin. Tanlangan metodlar ham o'quvchilarning so'z, so'z birikmasi va gapga oid bilimlarini yana-da mustahkamlashga qaratilgan. Xulosa qilib aytganda, mavzularni yoritib berishda integratsiyani to'g'ri tashkil qilish, interfaol metod va pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlay olish hamda kompetensiyaviy yondashuvga e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanishiga erishishimiz mumkin.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz.- Toshkent: "O'zbekiston", 2021-147b
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston", 2021-203b
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. III qism. / S.D.Kuranov – Toshkent:"Novda Edutainment", 2023. – 96 b.
4. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
5. Qosimova K, Matjonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. "Ona tili o'qitish metodikasi".